

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

### OLIY TA'LIM MUASSASASIDA SIRTQI (MAXSUS SIRTQI) VA KECHKI (SMENALI) TA'LIMNI TASHKIL ETISH TARTIBI TO'G'RISIDAGI NIZOMLARNI TASDIQLASH HAQIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Toshkent viloyatida sanoat ishlab chiqarish sohasi uchun muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 27-iyulda PQ-3153-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

#### 1. Quyidagilar:

Oliy ta'lismuassasasida sirtqi (maxsus sirtqi) ta'limgni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom **1- ilovaga** muvofiq;

Oliy ta'lismuassasasida kechki (smenali) ta'limgni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom **2- ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Vazirliklar va idoralar o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'limgaziri I.U. Madjidov zimmasiga hamda Vazirlar Mahkamasining Ta'limgaz, ilm-fan va yoshlar siyosati masalalari axborot-tahlil departamentiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2017-yil 21-noyabr,  
930-son

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrdagi 930-son qaroriga  
1-ILOVA

### **Oliy ta'lismuassasasida sirtqi (maxsus sirtqi) ta'limgni tashkil etish tartibi to'g'risida NIZOM**

#### **1-bob. Umumiyl qoidalar**

1. Ushbu Nizom "Ta'limgaz to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Toshkent viloyatida sanoat ishlab chiqarish sohasi uchun muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 27-iyulda PQ-3153-son hamda "Oliy ta'lismuassasalarida pedagogika yo'nalishida maxsus sirtqi bo'limlarni tashkil etish to'g'risida" 2017-yil 9-avgustdagli PQ-3183-son qarorlari asosida oliy ta'lismuassasasida bakalavriat ta'limgaz yo'nalishlari bo'yicha sirtqi (maxsus sirtqi) ta'limgni (keyingi o'rnlarda sirtqi (maxsus sirtqi) ta'limgaz deb ataladi) tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Oliy ta'lismuassasalarida sirtqi (maxsus sirtqi) ta'limgaz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarori bilan tasdiqlangan qabul kvotalariga muvofiq tashkil etiladi.

3. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta'limgaz quyidagi shakllarda olib boriladi: sirtqi shakl, maxsus sirtqi shakl, ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot berishning sirtqi shakli.

4. Ushbu Nizom sog'liqni saqlash, ta'limgaz sohasi va harbiy oliy ta'lismuassasalariga tatbiq etilmaydi.

#### **2-bob. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta'limga qabul qilish va o'qitishni tashkil qilish**

5. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta'limga talabalarni qabul qilish:

sirtqi shaklda — umumiy o‘rta (10-11-sinflar negizida), o‘rta maxsus, kasb-hunar ma’lumoti to‘g‘risidagi tegishli hujjatga ega bo‘lgan va test sinovlaridan (kirish imtihonlaridan) muvaffaqiyatlil o‘tgan;

maxsus sirtqi shaklda — faqat tegishli yoki turdosh ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘rta maxsus, kasb-hunar ma’lumotiga va ta’lim yo‘nalishiga muvofiq soha, kasb, lavozimlarda kamida uch yillik amaliy ish stajiga (pedagogika yo‘nalishlari uchun pedagogik stajga) ega bo‘lgan, tegishli vazirliklar va idoralar tomonidan berilgan tavsiyanomaga ega, test sinovlaridan (kirish imtihonlari yoki kasbiy suhbatdan) muvaffaqiyatlil o‘tgan;

ikkinchi va undan keyingi oliy ma’lumot berishning sirtqi shaklda — oliy ma’lumotga ega bo‘lgan (agar xorijiy oliy ta’lim muassasasini tugatgan bo‘lsa, oliy ma’lumot to‘g‘risidagi hujjati belgilangan tartibda tan olingan (nostrifikatsiya qilishgan) bo‘lishi kerak) va test sinovlaridan (kirish imtihonlaridan yoki kasbiy suhbatdan) muvaffaqiyatlil o‘tgan abituriyentlar hisobidan amalgalashiriladi.

6. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta’limga talabalarini qabul qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi 393-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta’lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarini o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi **nizomga** muvofiq amalgalashiriladi.

7. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta’limda o‘qish muddati:

sirtqi shaklda — kamida 5 yil;

maxsus sirtqi shaklda — kamida 3 yil;

ikkinchi va undan keyingi oliy ta’lim negizidagi sirtqi shaklda — kamida 3 yil. Bunda, o‘qish o‘quv rejalaridagi fanlar farqidan qat‘i nazar, bakalavriat ta’lim yo‘nalishining 2-kursidan boshlanadi.

8. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta’lim talabalariga talabalik guvohnomasi va reyting daftarchasi bepul beriladi.

9. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta’lim talabalarini o‘quv adabiyotlar va materiallar bilan oliy ta’lim muassasasi ta’minalaydi va bilim olish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Sirtqi (maxsus sirtqi) ta’lim talabalarini oliy ta’lim muassasasining barcha o‘quv jihozlari, auditoriyasi, laboratoriysi, kutubxonasi, axborot-resurs markazlari hamda o‘quv-yordamchi tuzilmalari xizmatidan bepul foydalanadi.

10. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta’limda o‘qish bo‘yicha oliy ta’lim yo‘nalishlariga qarab bir o‘qituvchiga to‘g‘ri keladigan talabalar soni nisbati 1:20 etib belgilanadi.

Ta’lim sohalari bloklari va shakllari bo‘yicha bir nafar o‘qituvchi hisobiga to‘g‘ri keladigan talabalar soni nisbatining normativlari qonun hujjatlari asosida belgilanadi.

11. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta’lim talabalarini talabalar safidan chetlashtirish va o‘qishini qayta tiklash O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi 393-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta’lim muassasalari talabalar o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi to‘g‘risidagi **nizomga** asosan amalgalashiriladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

12. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta’limdan kunduzgi ta’limga hamda sirtqi (maxsus sirtqi) ta’limning bir ta’lim sohasidan ikkinchisiga ko‘chirishga ruxsat beriladi.

(12-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-yanvardagi 59-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 01.02.2020-y., 09/20/59/0126-son)

### **3-bob. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta’limda o‘quv jarayonini tashkil qilish**

13. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta’limda o‘quv jarayoni ta’lim sohalarining davlat ta’lim standartlari va tegishli ta’lim yo‘nalishlari malaka talablari asosida tayyorlangan hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan kunduzgi ta’lim uchun tasdiqlangan o‘quv rejasi va fan dasturlari asosida tashkil etiladi.

14. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta’limda ta’lim yo‘nalishlarining ishchi o‘quv rejasi va fan dasturlari belgilangan tartibda tasdiqlangan o‘quv rejasi va fan dasturlari asosida ishlab chiqiladi hamda tayanch oliy ta’lim muassasalari bilan kelishgan holda tasdiqlanadi.

15. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta'limda o'quv jarayoni jadvali belgilangan tartibda tasdiqlangan o'quv rejasida ishlab chiqilgan ishchi o'quv rejasida qayd etiladi.

16. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta'lim talabasi uchun o'qishga qabul qilingan o'quv yili boshida (odatda, sentyabr-oktyabr oylarida) bevosita oliv ta'lim muassasasida 10 kunlik o'quv jarayoni bilan dastlabki tanishtiruv hamda semestr davomida o'qitiladigan fanlar bo'yicha qisqacha (ishchi o'quv rejasida belgilangan hajmda) ma'ruza, amaliy, laboratoriya va seminar mashg'ulotlari o'tkaziladi. Talabalarga mavzular bo'yicha topshiriqlar va ularni bajarish yuzasidan metodik ko'rsatmalar beriladi.

17. O'quv sessiyasigacha bo'lgan muddatda sirtqi (maxsus sirtqi) ta'limda o'qish mustaqil, jumladan, masofadan turib ta'lim olish shaklida amalga oshiriladi.

Bunda talaba metodik ko'rsatmalardan foydalangan holda ishchi o'quv rejada semestr uchun rejalashtirilgan fanlarning dasturlarida belgilangan mavzularni mustaqil o'zlashtiradi.

18. Talaba fan bo'yicha topshiriqlarni bajargandan so'ng, uni fan o'qituvchisiga belgilangan muddatlarda (odatda, masofadan turib Internet orqali) yuboradi hamda qayddan o'tkazadi. Fan o'qituvchisi talaba yuborgan materiallarni tekshirib, oraliq ishi sifatida baholaydi. Fan o'qituvchisi mavzular bo'yicha navbatdagi topshiriqlar va ko'rsatmalarni yuborishi, shuningdek, on-layn rejimida o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishi mumkin.

19. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta'lim talabasi har bir semestr davomida bir marta oliv ta'lim muassasasiga o'quv sessiyasiga chaqiriladi. Buning uchun unga o'quv sessiyasi boshlanishiga qadar (kamida 10 kun oldin) belgilangan shaklda xabarnoma yuboriladi.

20. O'quv sessiyasi davomida:

talaba semestr uchun berilgan topshiriqlarni himoya qiladi. Fan bo'yicha barcha topshiriqlar ijobjiy baholangan taqdirda talabaga fan bo'yicha yakuniy baholashga kirish huquqi beriladi;

fanlar bo'yicha yakuniy baholashlar o'tkaziladi;

navbatdagi semestr davomida o'qitiladigan fanlar qisqacha (ishchi o'quv rejasida belgilangan hajmda) ma'ruza, amaliy, laboratoriya va seminar mashg'ulotlari orqali tanishtiriladi. Ushbu mashg'ulotlar talabaga navbatdagi semestr davomida fanlarni o'zlashtirishi va topshiriqlarni bajarishi uchun asosiy va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishslash usullari va texnologiyalarini o'rgatishga qaratiladi. Mavzular bo'yicha topshiriqlar bilan ularni bajarish yuzasidan metodik ko'rsatmalar beriladi.

21. O'quv sessiyasi davomida o'tkaziladigan ma'ruza, amaliy, laboratoriya va seminar mashg'ulotlarida ilg'or usul va texnologiyalardan (jumladan, muammoli, interaktiv, ijodiy faoliyatni rivojlantirish, ijodiy vazifalarni guruh bo'lib hal etish, hamkorlik pedagogikasi, tabaqa lashtirish, individuallashtirish va boshqalardan) foydalaniladi.

22. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta'limda talaba tasdiqlangan ishchi o'quv rejasidagi barcha o'quv fanlarini o'zlashtirishi shart. Talabalar bilimini baholash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

23. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta'limda oraliq va yakuniy baholash turlari joriy qilinadi.

Oraliq baholashning mazmuni, uni bajarish usul va tartiblari hamda soni (bir o'quv semestri davomida ikki martagacha) har bir fan bo'yicha sirtqi (maxsus sirtqi) ta'lim uchun tayyorlangan ishchi fan dasturlarida belgilab beriladi va quyidagi mustaqil ish turlaridan iborat bo'ladi:

kurs (loyihasi) ishi;

nazorat savollari va topshiriqlari;

test-sinov savollari;

keyslar, mashqlar, misol va masalalar;

tajriba natijalari;

ishlab chiqarish muammolarini hal etishga yo'naltirilgan maxsus metodik ishlanmalar va tavsiyalar;

hisob-jadval ishlari va boshqalar.

Oraliq baholash masofaviy aloqa orqali on-layn rejimida o'tkazilishi ham mumkin.

24. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta'lim talabalarining malakaviy amaliyotlari ishchi o'quv rejasida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi. Odatda, bitiruv malakaviy ishi oldi amaliyotidan boshqa

amaliyotlar (ta’lim yo‘nalishiga mos bo‘lgan holda) talabaning ishlab turgan ish joyida mustaqil ravishda o‘tkaziladi.

Bitiruv malakaviy ishi oldi amaliyoti talabaning ish joyi ta’lim yo‘nalishiga mos bo‘lmagan holda, shuningdek, ishlamayotgan talabalar uchun barcha malakaviy amaliyotlar oliv ta’lim muassasasi tomonidan belgilangan obyektda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Malakaviy amaliyotlarning hisobotlari o‘quv sessiyasi davrida belgilangan tartibda himoya qilinadi.

25. Muayyan kursdagi fanlarni to‘liq o‘zlashtirgan talaba oliv ta’lim muassasasi rektorining buyrug‘i bilan keyingi kursga o‘tkaziladi.

26. Uzrli sabablar (kasallik, tabiiy ofat, xizmat safari, og‘ir oilaviy ahvol va boshqalar) tufayli muayyan kursdagi fanlarni belgilangan muddatlarda o‘zlashtira olmagan talabalarga muddati qo‘ylgan shaxsiy jadval beriladi. Shaxsiy jadval tegishli prorektor tomonidan tasdiqlanadi va undagi muddat navbatdagi o‘quv yiliga o‘tmasligi lozim.

Shaxsiy jadvalni belgilangan muddatda bajara olmagan talaba qayta o‘qish uchun kursda qoldiriladi. Talaba birinchi kursning birinchi semestridagi akademik qarzdorlikni belgilangan muddatda bartaraf etmagan taqdirda, talabalar safidan chetlashtiriladi, kasallik tufayli akademik ta’til berilgan holatlar bundan mustasno.

27. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta’limda har bir talaba uchun shaxsiy varaqqa ochiladi hamda unda oliv ta’lim muassasasidagi faoliyatining to‘liq monitoringi yuritilib, quyidagi ma’lumotlar aks ettiriladi:

- oraliq ishlarining bajarilishi;
- oraliq va yakuniy baholashlar natijalari;
- davlat attestatsiyasi baholari;
- bitiruv malakaviy ishi bo‘yicha baho;
- kursdan kursga o‘tganligi.

#### **4-bob. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta’limda masofadan turib o‘qitish elementlaridan foydalanish**

28. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta’limda masofadan turib o‘qitish talabalarning asosiy ish joyidan ajralmagan holda o‘quv rejasidagi barcha fan dasturlarida belgilangan bilimlarni mustaqil masofadan turib o‘zlashtirish asosida amalga oshirilishi mumkin.

29. Masofadan turib o‘qitish on-layn (masofadan turib real vaqt rejimida videoma’ruzalar, konsultatsiyalar, nazorat turlarini o‘tkazish) va off-layn (masofadan turib o‘qitish tizimidagi tegishli o‘quv-metodik resurslarni mustaqil ravishda o‘zlashtirish) rejimlarida tashkil etiladi.

30. Masofadan turib o‘qitish jadvali sirtqi (maxsus sirtqi) bo‘lim boshlig‘i tomonidan belgilanadi.

31. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta’limda masofadan turib o‘qitish elementlaridan foydalanganda o‘quv kurslarining sifati va samaradorligining doimiy nazorati O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Masofadan turib o‘qitishning texnik ta’minoti oliv ta’lim muassasasi tomonidan amalga oshiriladi.

32. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta’limda masofadan turib o‘qitish elementlarini joriy etish dasturiy platformasi, reglamenti va tartiblari O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan kelishgan holda belgilanadi.

33. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta’limda ta’lim faoliyatini amalga oshiruvchi kafedralar professor-o‘qituvchilari masofadan turib o‘qitishda o‘quv materiallari, topshiriqlar va maslahat-konsultativ ishlarni oliv ta’lim muassasasi saytidagi “Sirtqi (maxsus sirtqi) ta’lim” sahifasiga joylashtiradi va ularning bajarilishini nazorat qilib boradi.

Masofadan turib o‘qitish elementlaridan foydalangan xolda ta’lim beruvchi professor-o‘qituvchilar uchun o‘quv yuklamasi belgilangan tartibda belgilanadi.

34. Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi, sirtqi (maxsus sirtqi) bo‘lim boshlig‘i va tegishli kafedra mudiri masofadan turib o‘qitishni ta’minlaydi.

Masofadan turib o‘qitishda o‘quv-metodik jarayonni takomillashtirish va ilmiy-metodik masalalar oliv ta’lim muassasasi o‘quv-metodik kengashi yig‘ilishida muhokama qilib boriladi.

## **5-bob. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta’limda davlat attestatsiyasini tashkil etish**

35. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta’limda davlat attestaniyasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etiladi.

Davlat attestatsiyalari o‘quv rejasida ko‘rsatilgan fan (fanlar majmuasi) bo‘yicha o‘tkaziladi.

36. O‘quv rejasida bitiruv malakaviy ishini bajarish nazarda tutilgan taqdirda, bitiruv malakaviy ishi oliy ta’lim muassasasi bakalavriatida o‘qitishning yakuniy bosqichi hisoblanadi va sirtqi (maxsus sirtqi) ta’limda bitiruv malakaviy ishi mavzusi va mazmuni asosan talabalarining amaliy faoliyat bilan bog‘liq holda shakllantiriladi.

37. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta’limda ta’lim yo‘nalishi ishchi o‘quv rejasini to‘liq bajargan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o‘tgan bitiruvchiga Davlat attestatsiya komissiyasining qarori asosida “bakalavr” darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi bakalavr diplomi ilovasi bilan beriladi.

## **6-bob. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta’lim talabalarining oliy ta’lim muassasasida o‘quv sessiyasida ishtirokini ta’minlash**

38. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta’lim talabalariga o‘quv sessiyasida ishtirok etish uchun ishlab turgan joyidan kamida 30 kalendar kunlik o‘rtacha oylik maoshi saqlangan qo‘srimcha ta’til beriladi. Kursda qoldirilgan talabalarga esa haq to‘lanmaydigan taklif xabarnomasi beriladi.

39. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta’lim bitiruvchisiga yakuniy davlat attestatsiyalaridan o‘tish, bitiruv malakaviy ishini himoya qilish uchun ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasini va jadvalida belgilangan muddatlarda ishlab turgan joyidan kamida 30 kalendar kunlik o‘rtacha maoshi saqlangan qo‘srimcha ta’til beriladi.

40. Bitiruv malakaviy ishini yakunlash davrida bitiruvchi xizmat qilayotgan muassasa unga 30 kalendar kunlik maoshi saqlanmagan qo‘srimcha ta’til berishi mumkin. Talaba ish joyidan tashkilot rahbari va buxgalteri imzosi bilan shu davr uchun haq to‘lanmaydigan ta’tilda ekanligi to‘g‘risidagi ma‘lumotnomani Sirtqi (maxsus sirtqi) bo‘limga taqdim etadi.

41. Bitiruv malakaviy ishining yakunlanganligi to‘g‘risida uning himoyasi belgilangan kundan bir hafta muddat avval sirtqi (maxsus sirtqi) bo‘lim boshlig‘i va mutaxassis tayyorlovchi kafedra mudiri nomiga bildirgi yoziladi va tegishli hujjatda qayd qilinadi. Bildirgi talaba yoki uning ilmiy rahbari tomonidan berilishi mumkin.

## **7-bob. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta’limda o‘quv jarayonini boshqarish**

42. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta’lim mavjud bo‘lgan oliy ta’lim muassasalarida bo‘lim boshlig‘i va o‘quv-metodik ishlar bo‘yicha metodist lavozimlaridan iborat bo‘lgan Sirtqi (maxsus sirtqi) bo‘lim tashkil etiladi. Bunda bo‘lim shtat jadvali dekanatlar uchun belgilangan normativlarga muvofiq shakllantiriladi.

43. Sirtqi (maxsus sirtqi) bo‘limni oliy ta’lim muassasasi fakultetining dekani maqomiga tenglashtirilgan boshliq boshqaradi.

Bo‘lim boshlig‘i:

sirtqi (maxsus sirtqi) ta’limni rivojlantirish dasturini ishlab chiqadi;

talabalarining malakaviy amaliyotlarini tashkil qilish bo‘yicha ish beruvchilar bilan shartnomalar tuzadi;

o‘qitishning yangi texnologiyalari tatbiq qilinishini va talabalar o‘zlashtirishi nazorat qilinishini ta’minlaydi;

talabalarining bitiruv malakaviy ishlari mavzularini muvofiqlashtiradi va tasdiqlaydi;

talabalar bilan o‘quv va tarbiyaviy ishlar olib borish samaradorligini oshirish choralarini ko‘radi;

mehnat muhofazasi, texnika va yong‘in xavfsizligi bo‘yicha tadbirlarni, bo‘lim xodimlarining ichki tartib va mehnat intizomi qoidalariga rioxha qilishini tashkil etadi;

o‘quv jarayonini ta’minlaydigan professor-o‘qituvchilarning o‘quv-metodik, ilmiy ishlarini rejalashtiradi, tashkil etadi va muvofiqlashtiradi;

oliy ta’lim muassasasi ilmiy kengashi majlislarida, rektoratda, fakultet va kafedralarda sirtqi (maxsus sirtqi) ta’lim manfaatlarini o‘z vakolati doirasida himoya qiladi va amalga oshiradi;

talabalarning kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlariga rahbarlik qilish uchun sirtqi (maxsus sirtqi) ta'linda o'quv jarayonini ta'minlaydigan professor-o'qituvchilarni taqsimlaydi;

Sirtqi (maxsus sirtqi) bo'limning oliy ta'lim muassasasining boshqa tuzilmalari bilan o'zaro aloqasini ta'minlaydi.

44. Sirtqi (maxsus sirtqi) bo'lim ma'muriy boshqaruv jihatdan oliy ta'lim muassasasi rektoriga hamda o'quv va ilmiy-metodik ishlar yuzasidan oliy ta'lim muassasasining o'quv va ilmiy ishlar bo'yicha prorektorlariga bo'ysunadi.

45. Sirtqi (maxsus sirtqi) bo'limni saqlash bilan bog'liq xarajatlar oliy ta'lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag'lari (to'lov-kontrakt mablag'lari) hisobidan amalga oshiriladi.

46. Sirtqi (maxsus sirtqi) bo'lim faoliyati har bir o'quv semestri oxirida tegishli fakultetlar o'quv-metodik kengashida va o'quv yili yakunida oliy ta'lim muassasasi kengashida muhokama etiladi.

## **8-bob. Yakunlovchi qoida**

47. Ushbu Nizomda qayd etilgan masalalar yuzasidan kelib chiqadigan nizolar qonun hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrdagi 930-sон [qaroriga](#)  
2-ILOVA

# **Oliy ta'lim muassasasida kechki (smenali) ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida NIZOM**

## **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom “[Ta'lim to'g'risida](#)” va “[Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida](#)”gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent viloyatida sanoat ishlab chiqarish sohasi uchun muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2017-yil 27-iyuldaggi PQ-3153-sон [qarori](#) asosida oliy ta'lim muassasalarida bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kechki (smenali) ta'limni tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Oliy ta'lim muassasalarida kechki (smenali) ta'lim O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarori bilan tasdiqlangan qabul kvotalariga muvofiq tashkil etiladi.

3. Ushbu Nizom sog'liqni saqlash, ta'lim sohasi va harbiy oliy ta'lim muassasalariga tatbiq etilmaydi.

## **2-bob. Kechki (smenali) ta'limga qabul qilish va o'qitishni tashkil qilish**

4. Kechki (smenali) ta'limga talabalarni qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi 393-sон qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi [nizomga](#) muvofiq amalga oshiriladi.

5. Kechki (smenali) ta'limda o'qish muddati — kamida 4,5 yil.

6. Kechki (smenali) ta'limga kirgan shaxslarga talabalik guvohnomasi va reyting daftarchasi bepul beriladi.

7. Kechki (smenali) ta'lim talabalarini o'quv-metodik adabiyotlar, o'quv-metodik hujjatlar, tarqatma materiallar bilan oliy ta'lim muassasasi ta'minlaydi va bilim olish uchun shart-sharoitlarni yaratadi.

8. Kechki (smenali) ta'lim talabalarini oliy ta'lim muassasasining barcha o'quv jihozlari, auditoriyasi, laboratoriysi, kutubxonasi, axborot-resurs markazlari hamda o'quv-yordamchi tuzilmalari xizmatidan bepul foydalanadi.

9. Kechki (smenali) ta'limda o'qish bo'yicha oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklariga qarab bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan talabalar soni nisbati kunduzgi ta'lim bilan bir xil nisbatda belgilanadi.

10. Kechki (smenali) ta'lim talabalarini talabalar safidan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi 393-sun qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi **nizomga** asosan amalga oshiriladi.

11. Kechki (smenali) ta'limdan sirtqi (maxsus sirtqi) ta'limga hamda kechki (smenali) ta'limning bir ta'lim sohasidan ikkinchisiga ko'chirishga yo'l qo'yilmaydi.

### **3-bob. Kechki (smenali) ta'limda o'quv jarayonini tashkil qilish**

12. Kechki (smenali) ta'limda o'quv jarayoni ta'lim sohalarining davlat ta'lim standartlari va tegishli ta'lim yo'nalishlari malaka talablari asosida tayyorlangan hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan kunduzgi ta'lim uchun tasdiqlangan o'quv rejasni va fan dasturlari asosida tashkil etiladi.

13. Kechki (smenali) ta'lim ta'lim yo'nalishlarining ishchi o'quv rejasni va fan dasturlari belgilangan tartibda tasdiqlangan o'quv rejasni va fan dasturlari asosida ishlab chiqiladi hamda tayanch oliy ta'lim muassasalari bilan kelishgan holda tasdiqlanadi.

14. Kechki (smenali) ta'limda o'quv jarayoni jadvali belgilangan tartibda tasdiqlangan o'quv rejasni asosida ishlab chiqilgan ishchi o'quv rejasni tarkibida qayd etiladi.

15. Kechki (smenali) ta'limda o'quv jarayoni bir o'quv yilida ikki semestri bo'lib, o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish kunduzgi ta'lim bilan bir xil tartibda tashkil etiladi.

16. Kechki (smenali) ta'lim talabasi tasdiqlangan ishchi o'quv rejasidagi barcha o'quv fanlarini o'zlashtirishi shart.

17. Kechki (smenali) ta'limda o'qish odatda kunduzgi smena mehnat faoliyatidan keyingi vaqtida auditoriya mashg'ulotlari (ma'ruza, amaliy, laboratoriya) shaklida hamda talabalarni asosiy ish joyidan ajralmagan holda mustaqil, jumladan, masofadan turib o'qitish shaklida amalga oshiriladi.

18. O'quv mashg'ulotlari oliy ta'lim muassasasi hamda professor-o'qituvchilarning vaqt va imkoniyatlarini inobatga olgan holda talabalarning mehnat faoliyati smenasiga muvofiqlashtirilib kunning birinchi yarmida ham tashkil qilinishi mumkin. Bunda mazkur talabalar soni akademik guruh shakllantirish darajasida bo'lishi lozim.

19. Kechki (smenali) ta'limda o'qish (kunduzgi ta'limdan farqli ravishda) bir haftada, odatda, besh kun amalga oshiriladi va haftalik o'quv soati hajmi 20 akademik soat qilib belgilanadi.

20. Kechki (smenali) ta'limda ma'ruza o'qish, amaliy, laboratoriya va seminar mashg'ulotlarini o'tkazishda ilg'or usul va texnologiyalardan (jumladan, muammoli, interaktiv, ijodiy faoliyatni rivojlantirish, ijodiy vazifalarni guruh bo'lib echish, hamkorlik pedagogikasi, tabaqa lashtirish, individuallashtirish va boshqalardan) foydalilanadi.

21. Kechki (smenali) ta'limda talabalar bilimini baholash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

22. Kechki (smenali) ta'limda oraliq va yakuniy baholash turlari joriy qilinadi. O'quv fanining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib joriy baholash turi joriy qilinishi mumkin.

Oraliq ish mazmuni, uni bajarish usul va tartiblari har bir fan bo'yicha tayyorlangan ishchi fan dasturlarida belgilab beriladi va quyidagi mustaqil ish turlaridan iborat bo'ladi:

kurs (loyihasi) ishi;

nazorat savollari va topshiriqlari;

test-sinov savollari;

keyslar, mashqlar, misol va masalalar;

tajriba natijalari;

ishlab chiqarish muammolarini echishga yo'naltirilgan maxsus metodik ishlanmalar va tavsiyalar;

hisob-jadval ishlari va boshqalar.

23. Kechki (smenali) ta'lim talabalarining malakaviy amaliyotlari o'quv rejasida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi. Odatda, bitiruv malakaviy ishi oldi amaliyotidan boshqa amaliyotlar (ta'lim yo'nalishiga mos bo'lgan holda) talabaning ishlab turgan ish joyida mustaqil ravishda o'tkaziladi.

Bitiruv malakaviy ishi oldi amaliyoti talabaning ish joyi ta'lim yo'nalishiga mos bo'lмаган holda, shuningdek, ishlamayotgan talabalar uchun barcha malakaviy amaliyotlar oliv ta'lim muassasasi tomonidan belgilangan obyektda belgilangan tartibda o'tkaziladi.

24. Muayyan kursdagi fanlarni to'liq o'zlashtirgan talaba oliv ta'lim muassasasi rektori buyrug'i bilan keyingi kursga o'tkaziladi.

25. Uzrli sabablar (kasallik, tabiiy ofat, xizmat safari, og'ir oilaviy ahvol va boshqalar) tufayli muayyan kursdagi fanlarni belgilangan muddatlarda o'zlashtira olmagan talabalarga muddati qo'yilgan shaxsiy jadval beriladi. Shaxsiy jadval tegishli prorektor tomonidan tasdiqlanadi, undagi muddat navbatdagi o'quv yiliga o'tmasligi lozim.

Shaxsiy jadvalni belgilangan muddatda bajara olmagan talaba qayta o'qish uchun kursda qoldiriladi. Talaba birinchi kursning birinchi semestridagi akademik qarzdorlikni belgilangan muddatda bartaraf etmagan taqdirda, talabalar safidan chetlashtiriladi, kasallik tufayli akademik ta'til berilgan holatlar bundan mustasno.

26. Kechki (smenali) ta'limda har bir talaba uchun shaxsiy varaqqa ochiladi hamda unda oliv ta'lim muassasasidagi faoliyatning to'liq monitoringi yuritilib, quyidagi ma'lumotlar aks ettiriladi:

- oraliq ishlarining bajarilishi;
- oraliq va yakuniy baholashlar natijalari;
- davlat attestatsiyasi baholari;
- bitiruv malakaviy ishi bo'yicha baho;
- kursdan kursga o'tganligi.

#### **4-bob. Kechki (smenali) ta'limda masofadan turib o'qitish elementlaridan foydalanish**

27. Kechki (smenali) ta'limda masofadan turib o'qitish talabalarining asosiy ish joyidan ajralmagan holda o'quv rejasidagi barcha fan dasturlarida belgilangan bilimlarni mustaqil masofadan turib o'zlashtirish asosida amalga oshirilishi mumkin.

28. Masofadan turib o'qitish on-layn (masofadan turib real vaqt rejimida videoma'ruzalar, konsultatsiyalar, nazorat turlarini o'tkazish) va off-layn (masofadan turib o'qitish tizimidagi tegishli o'quv-metodik resurslarni mustaqil ravishda o'zlashtirish) rejimlarida tashkil etiladi.

29. Masofadan turib o'qitish jadvali o'quv-metodik bo'lim (boshqarma) boshlig'i tomonidan belgilanadi.

30. Kechki (smenali) ta'limda masofadan turib o'qitish elementlaridan foydalanganda o'quv kurslarining sifati va samaradorligining doimiy nazorati O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Masofadan turib o'qitishning texnik ta'minoti oliv ta'lim muassasasi tomonidan amalga oshiriladi.

31. Kechki (smenali) ta'limda masofadan turib o'qitish elementlarini joriy etish dasturiy platformasi, reglamenti va tartiblari O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishgan holda belgilanadi.

32. Kechki (smenali) ta'limda ta'lim faoliyatini amalga oshiruvchi kafedralar professor-o'qituvchilari masofadan turib o'qitishda o'quv materiallari, topshiriqlar va maslahat-konsultativ ishlarini oliv ta'lim muassasasi saytidagi "Kechki (smenali) ta'lim" sahifasiga joylashtiradi va ularning bajarilishini nazorat qilib boradi.

Masofadan turib o'qitish elementlaridan foydalangan xolda ta'lim beruvchi professor-o'qituvchilar uchun o'quv yuklamasi belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

33. Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi, o'quv-metodik bo'lim (boshqarma) boshlig'i va tegishli kafedra mudiri kechki (smenali) ta'limda masofadan turib o'qitish amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Masofadan turib o'qitishda o'quv-metodik jarayonni takomillashtirish va ilmiy-metodik masalalar oliv ta'lim muassasasi o'quv-metodik kengashi yig'ilishida muhokama qilib boriladi.

#### **5-bob. Kechki (smenali) ta'limda davlat attestatsiyasini tashkil etish**

34. Kechki (smenali) ta'limda davlat attestatsiyasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etiladi.

35. Davlat attestatsiyalari o‘quv rejasida ko‘rsatilgan fan (fanlar majmuasi) bo‘yicha o‘tkaziladi.

36. Bitiruv malakaviy ishi oliy ta’lim muassasasi bakalavriatida o‘qitishning yakuniy bosqichi hisoblanadi va kechki (smenali) ta’limda bitiruv malakaviy ishi mavzusi va mazmuni asosan talabalarning amaliy faoliyati bilan bog‘liq holda shakllantiriladi.

37. Kechki (smenali) ta’limda ta’lim yo‘nalishi ishchi o‘quv rejasini to‘liq bajargan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o‘tgan bitiruvchiga Davlat attestatsiya komissiyasining qarori asosida “bakalavr” darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi bakalavr diplomi ilovasi bilan beriladi.

#### **6-bob. Kechki (smenali) ta’limda o‘quv jarayonini boshqarish**

38. Kechki (smenali) ta’lim o‘quv-metodik bo‘lim (boshqarma) boshlig‘i tomonidan tegishli ta’lim yo‘nalishlari dekanlari bilan birgalikda boshqariladi.

39. Kechki (smenali) ta’lim tashkil etilgan oliy ta’lim muassasalarida o‘quv-metodik bo‘lim (boshqarma) tarkibida kechki (smenali) ta’lim uchun o‘quv-metodik ishlar bo‘yicha qo‘srimcha metodist lavozimlari joriy etiladi.

40. O‘quv-metodik bo‘lim (boshqarma) boshlig‘i:

kechki (smenali) ta’limni rivojlantirish dasturini ishlab chiqadi;

ish beruvchilar, davlat va jamoat organlari, ta’lim tizimini boshqaruvchi organlar, tashkilotlar, muassasalar, korxonalar bilan o‘zaro aloqalarni amalgalashiradi, talabalarning malakaviy amaliyotlari bo‘yicha shartnomalarini rasmiylashtiradi;

o‘qitishning yangi texnologiyalari tatbiq qilinishini va talabalar o‘zlashtirishi nazorat qilinishini ta’minlaydi;

talabalar bilan o‘quv va tarbiyaviy ishlar olib borish samaradorligini oshirish choralarini ko‘radi;

mehnat muhofazasi, texnika va yong‘in xavfsizligi bo‘yicha tadbirlarni, bo‘lim xodimlarining ichki tartib va mehnat intizomi qoidalariga rioya qilishini tashkil etadi;

o‘quv jarayonini ta’minlaydigan professor-o‘qituvchilarning o‘quv-metodik, ilmiy ishlarini rejallashtiradi, tashkil etadi va muvofiqlashtiradi; oliy ta’lim muassasasi ilmiy kengashi majlislarida, rektoratda, fakultet va kafedralarda kechki (smenali) ta’lim manfaatlarini o‘z vakolati doirasida himoya qiladi va amalgalashiradi;

kechki (smenali) ta’lim masalalari bo‘yicha oliy ta’lim muassasasining boshqa tuzilmalari bilan o‘zaro aloqasini ta’minlaydi.

41. Kechki (smenali) ta’lim ma’muriy boshqaruvi jihatdan oliy ta’lim muassasasi rektoriga hamda o‘quv va ilmiy-metodik ishlar yuzasidan oliy ta’lim muassasasi o‘quv va ilmiy ishlar bo‘yicha prorektorlariga bo‘ysunadi.

42. Kechki (smenali) ta’lim bilan bog‘liq xarajatlar oliy ta’lim muassasalarining budgetdan tashqari mablag‘lari (to‘lov-kontrakt mablag‘lari) hisobidan amalgalashiriladi.

#### **7-bob. Yakunlovchi qoida**

43. Ushbu Nizomda qayd etilgan masalalar yuzasidan kelib chiqadigan nizolar qonun hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

*(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.11.2017-y., 09/17/930/0301-son; 01.02.2020-y., 09/20/59/0126-son)*